

TERMIN, NOMENKLATURA, ISTILOH VA ATAMA TUSHUNCHALARINING O'ZARO TAFOVUTLARI

Masharipov Jaxongir Axmedovich,
tayanch doktorant, UrDU, Uzbekistan, Khorezm,

Annotatsiya: Ushbu maqolada termin, nomenklatura, istiloh va atama tushunchalarining o'zaro tafovutlari misollar asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: fan-texnika, nomenklatura, terminologiya, polisemiya, sinonimiya, aspect, atama, toponimlar, urg'u, harf, maqom.

Tilshunoslikda terminologiya o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, bugungi zamonaviy tilshunoslikda mavqei ortgan bo'lsa ortganki, lekin ahamiyatini zarracha ham yo'qotmagan. Har qanday soha, u fan-texnika bo'ladimi yoki tibbiyot, yoinki transport sohasi va boshqa har qanday jabha rivojlanar ekan, u soha terminologiyasi ham hamohang tarzda takomillashib va kengayib boradi.

Terminlar muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarda termin va terminologiyaning turli nazariy va amaliy masalalari atroflicha yoritilgan [1;7]. Bunday ilmiy ishlarda biz termin so'zi bilan bir qatorda, nomenklatura, atama va istiloh so'zlariga ham duch kelishimiz tayin. Shu ma'noda bu tushunchalarning bir-biridan farqli tomonlarini ko'rib chiqishni joiz deb topdik. Ularning farqlari to'grisida bir qancha tilshunos olimlar o'z fikrlarini bildirgan bo'lib, biz ularni ushbu maqolada taqdim qilamiz va o'z fikrlarimizni ham bildirib o'tamiz.

Terminga muayyan talablar qo'yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so'zlardan ajratib turadi [2;6]. I.Mirzayevning fikricha: "Termin" bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoxud so'z birikmasidir [3;123]. Shuni alohida ta'kidlab etish kerakki, H.Dadaboyev, A.Xojiyev hamda M.Qosimova ishlaridan oldin (S.Ibrohimov, H.Jamolxonov, N.Mamatov) va keyin himoya qilingan nomzodlik va doktorlik monografiyalarining birontasida ham fe'ning terminologiyadagi roli va o'rni tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan. Binobarin, bunday leksemalar termin deb tan olinmagan [1;9].

Nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini o'zida mujassam etadi. Ularning miqdori haddan ortiq darajaga yetganda, maxsus strukturani taqozo etadi. Masalan, hozirgi kunda 200 mingdan ortiq o'simlik turlarining har biriga alohida nom qo'yishga urinish befoyda, buning imkoni ham yo'q [2;6]. Ushbu o'rinda insonning o'zini anglash, tabiatni tushunish jarayonlarini o'z ichiga olgan tabiiy fanlar nomenklaturasini inson tomonidan yaratilgan texnik nomenklatura bilan, va yana savdo sotiq nomenklaturasi bilan farqlash zarur bo'ladi. Chunki ular turlicha tamoyillar asosida voqelanadi.

Ilmiy nomenlarning inson tomonidan yaratilgan nomenlardan farqi shundaki, ilmiy nomenlar tabiatda bor bo'lib, texnik nomenlar esa unday emas. Ixtirochi yaratgan kashfiyot xalq tilidagi so'zlar bilan atalmaydi (garchi bunga ba'zi istisnolar bor bo'lsada). Bu nomenlar odatda chet tillardagi leksemalarga tayanilib yoki sun'iy tarzda yaratiladi. Bunda urg'u harf va raqamlar indeksatsiyasiga qaratiladi. Masalan: Nexia 1, Nexia 2, Nexia 3 va hokazo. E'tiborli jihati shundaki, nomenlarning ko'pchiligi savdo-sotiq nomenlariga ham aylangan. Yuqoridagi keltirilgan misol ayni shuni dalili bo'la oladi.

Ayrim hollarda davlatlararo ishlab chiqarilgan ayni mahsulot yoki tovar turli ma'no kasb etishi mumkin. Chunonchi, sobiq sho'rolar davlatida ishlab chiqarilgan M-20 yengil avtomashina Pobeda, Polshada esa Varshava nomlari bilan atalgan. Nomenklatura va terminologiya o'rtasidagi prinsipial farqlardan biri – nomenlar, odatda, terminologik lug'atlarda qayd etilmaydi yoxud o'ta cheklangan miqdorda lug'atlardan o'rin oladi. Ma'lumki, rasmiy ilmiy nomenga ega atsetilsalitsil kislotasi dorisi tijoriy aspirin nomi bilan keng ommalashgan va h.k. [2;7]

Nomenklatura, garchi, tushunchaga aloqador bo'lsa-da, biroq u hisobsizdir. Muayyan fan terminologiyasining esa miqdori, soni aniq, zotan, ular tushunchalar sistemasini og'zaki tarzda ifodalaydi. [2;7]

Ma'lumki, terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mavjud bo'lishi ma'qullanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda ba'zan ikki yoki undan ortiq sinonim(dublet)lardan foydalanish ko'zga tashlanadi. Chunonchi, terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama-istiloh so'zlaridan sinonimik uya tarzida foydalaniladi. Sir emaski, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin ba'zi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida termin o'rnida atama derivatini qo'llash faollashdi [2;7].

Bir qaraganda, baynalmilal o'zlashmaga har jihatdan mos tushgan o'zso'zning qo'llanishi ma'quldek tuyuladi. Lekin termin o'zlashmasining ta'rifi bilan atama yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. O'z vaqtida A.Hojiyev termin so'zini atama yasamasi bilan almashtirishning noto'g'ri ekanligi, uning sabab va oqibatlarini xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi [4;22-25].

Shularni hisobga olgan holda, termin o'zlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo'llanuvchi so'z va so'z birikmalari, atama so'zini shartli ravishda qo'yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh o'zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish [3;28-30] o'zini oqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Axmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlil va tarjima muammolari. Monografiya. T.: 2020.
2. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2019
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2017.
4. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезони. Тошкент, 1996.